

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARDA DO'STLIK VA  
MEHMONDO'STLIK MAVZUSI HAMDA ULARDAGI SIMANTIK TASNIFLANISH

B.A. Abdiyeva  
SamDCHTI o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Nemis tilidagi maqollar simantik jihatdan ko'pgina guruhlarga tasniflanadi va ulardan do'stlik va mehmondo'stlik haqidagilari salmoqli o'rinni egallaydi. tezisda mana shu tipga kiruvch nemis tili maqollari va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari keltirilib ikkala tildagi o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** nemis tili, o'zbek tili, maqollar, do'stlik, mehmondo'stlik, simantik tasniflash.

Qaysi tilda bo'lishidan qat'iy nazar maqollar insonlar ongiga yaxshilik urug'ini sepuvchi, ularni mehr-oqibat, do'stonalik, mehnatsevarlik, donolik, samimiylilik va sadoqat kabi ezgu xususiyatlarga undovchi, yovuzlikni qoralovchi til birliklari hisoblanadi. Ushbu mavzular orasidan do'stonalik, do'stga bo'lgan sadoqat, mehmondo'stlik kabi tematik maqollar nemis va o'zbek maqolshunoslikida salmoqli o'rin egallaydi.

Quyida biz nemis va o'zbek xalq maqollaridagi do'stlik va mehmondo'stlik mavzusiga to'xtalib bu mavzuning har ikkala tildagi ifodalanishini qiyoslashga, ulardagi o'xshash va farqli jihatlarni qisman tahlil qilib ko'rsatamiz. Do'stlik har bir kishi uchun muhim va afsuski hayot davomida chin va sadoqatli do'stlar bilan birga tez-tez bevafo do'stlarga ham uchrab turamiz. Mana shu fikrlar ko'plab nemis va o'zbek maqollarida ham tasvirlanadi. Aynan do'stlikning haqiqiy yoki soxtaligini ifodalovchi bir qator nemis maqollari o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi.

1) "Gluck macht Freunde, aber die not pruft sie"- Chin do'st boshingga kulfat tushganda bilinadi.

2) „Gute Freunde erkennt man leichter, wenn das Leben schwerer wird.“-Do'st dostni kulfatda sinar.

3) "Freundschaft ist wie der Wein, je älter, desto besser" –Kiyimning yangisi zaxshi do'stning eskisi.

4) „Alte Freunde und alter Wein sind am besten.“- "Qadim do'stlik zanglamas

5) „Besser ist es, tot zu sein als ohne Freunde.“ -Do'stsiz boshim tuzsiz oshim

6) „Tausend Freunde, das ist wenig - ein Feind, das ist viel.“ Do'sting mingta bo'lsa ham kam, dushmaning bitta bo'lsa ham ko'p.

Do'stlik haqidagi maqollar ham xuddi boshqa mavzular kabi o'zining maxsus yo'nalishlariga ega. do'stlik muhim, lekin shunday do'stlar ham borki ular djuda ko'p bo'lishiga qaramasdan kishi o'zini baxtli his qila olmaydi. Bu yerda gap fidoiy chin do'stlar haqida boradi va ko'pincha maqollarda do'stlik va dushmanlik o'rtasidagi qadr qiymat taqqoslanadi.

1)„Leihen macht Freunde, wiederfordern Feinde“ „Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim“

2) „Wer den anderen warnt, der ist sein Freund.“ „Do`st achitib gapirar dushman kuldirib .

3) „Feinde sind zwischen Freunde“ -Odam olasi ichida

Do`stlik mavzusidagi maqollarning yana bir turi bu insondagi shaxsiy xususiyatlarning atrofdagi do`stlariga yoki do`st orttirishga bo`lgan muhim ta`siri haqidadir.

1) „Gleiche Bürde hält feste Freundschaft“ -Sen menga do`sting kimligini aytsang men senga kimligingni aytaman.

2) „Seltener Besuch vermehrt die Freundschaft.“ -Mehr ko`zda

4) „Schweigen bricht Freundschaft“ -

3) „Kleine Geschenke erhalten die Freundschaft.“ - Yaxshi ko`rgan do`stingga

Yaxshi ko`rgan molingni ber.

Shuningdek, nemis tilidagi do`stlik haqidagi maqollar ichida o`zbek maqollariga ekvivalent maqollar bilan bir qatorda yana shunday maqollar ham borki, ular o`zbek xalq maqollari orasida uchramaydi.

1) "Ein Freund, ein guter Freund, das ist das Beste, was es gibt auf der Welt." - „Yaxshi bir do`st dunyodagi eng oliy ne`mat“

2) „Jedermanns freund ist keines Freund“ – Hammaning do`sti- hechkimning do`sti.

3) „Es sind nicht alles jemens Freunde, die ihm zulachen.“ - Kulib turgan hamma ham do`st bo`lavermaydi.

Ma`lumki o`zbek va nemis xalqlaridagi mehmon, mehmondo`stlik, mehmonga borish yoki mehmon kutish kabi odatlarga bo`lgan munosabat katta farq qiladi. shunga qaramasdan bu mavzuda ma`nodosh bo`lgan ikki tildagi o`xshash maqollarni tez tez uchratamiz. Bundan kelib chiqadiki

1) „Ungeladene Gäste gehören nicht zum Feste“ -chaqirilmagan joyga borma chaqirilgan joydan qolma.

2) „Gäste, die nicht geladen, kommen unter den Tisch.“ Nasibasi tortgan chaqirilmasa ham keladi.

3) Wer da will gelten, der komme selten. „Kim kelishni xohlasa osha kamdan kam keladi“

4) „Gute Freunde findet man nicht am Wege.“ - Yaxshi do`stlar yo`l yo`lakay topib olinmaydi.

Xalq ogzaki ijodi do`st va do`stlikning sifatini ham bir qancha maqollarda madh etgan. Bunday maqollarda agar odamlar faqat chiroyli gapiradigan xushmuomala do`stlarga ega bo`lsayu lekin ularni fikrlashlari bunday bo`lmasa bunday do`stlar haqiqiy do`stlar bo`la olmasligi aytilgan. Lekin agar kimdir kerakli paytda yordam qo`lini cho`zolsa unga nisbatan oltindan qimmat do`st degan ta`rif beriladi.

1)“Nichts ist besser verkauft, als was man einem echten Freunde, der`s bedürftig ist, schenkt.“ - Kerakli paytda cho`zilgan qo`l oltindan qimmat

2) „Vertraue keinem Freunde, du habest ihn denn erkannt in der Not.“ -Faqat sen kerak paytingda yoningda bo`lgan do`stlarga hech qachon ishonma.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anneliese Muller Hegemann, Luise Otto Das Kleine Sprichwörterbuch. veb Bibliographisches Institut Leipzig 1981
2. O'zbek xalq maqollari. Toshkent 2018
3. Röhrich L. Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten. 3. Aufl. Herder Verlag, Freiburg. Basel, Wien, 1974.
4. Hans Schemann. Deutsche Idiomatik. Stuttgart, Dresden, 1993.
5. Schippan T. Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig, 1984.